

**TIBBIYOT TERMINOLOGIYASIDA QADIMGI LOTIN VA BUGUNGI
YEVROPA TILLARI**

Qahhorova Shahnoza To'raqulovna

Navoiy davlat universiteti

Bugungi kunda, ingliz tili jahon ilmi fani uchun lingua franca ga aylanishidan oldin tibbiyotda faqat lotin tili asosiy til sifatida qo'llanilgan. Ingliz tili jahon tili bo'lgan zamonaviy davrda ingliz tilining zamonaviy tibbiyot tiliga aralashuvi kuchayib borayotganini inkor etib bo'lmaydi. Ilmiy tadqiqotlar asosan ingliz tilida nashr etiladi, shuningdek, kasalliklar, laboratoriya va tekshirish jarayonlari uchun yangi tibbiy atamalar ingliz tilida paydo bo'layapti. Ilm ahli ingliz tilida muloqat qilmoqda va eng yirik ilmiy jurnallar faqatgina ingliz tilida nashr qilinmoqda. Shu o'rinda asosli bir savol paydo bo'ladi, tibbiy terminologiyani ingliz tilida yuritish kerakmi? Agar ingliz tiliga o'tkazilsa ham, anatomik atamalar asl shaklida qoladi. Ingliz tili tibbiyotning yangi muloqot tili bo'lish tendentsiyasiga qaramasdan, ingliz tibbiyot terminologiyasi lotin tilidan ildiz otgan. Boshqacha qilib aytganda, tibbiy ingliz tili lotin tilidan kelib chiqqan.

Tibbiyot terminologiyasini ikkita asosiy qismga bo'lish mumkin: anatomik va klinik. Anatomik terminologiya lotin tilida, klinik terminologiya bo'lsa yunon tilida. Zamonaviy anatomik terminologiya ko'p asrlik an'ana va doimiy ravishda qayta ko'rib chiqiladigan bilimlarga asoslanadi. Klinik tibbiyot hali o'z rivojlanishini tugatmagan va mavjud kasalliklarning kelib chiqishi bilan bir qatorda, yangilari bo'yicha unga javob beradigan ko'plab savollar mavjud. Kasalliklarning nomlari turli vaqt va joylarda empirik tarzda shakllangan, shuning uchun klinik terminologiya unchalik bir xil emas. Bundan tashqari, klinik mavzular rivojlanishda davom etmoqda, shuning uchun ularning bilimlari doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi kerak bo'ladi.

Tibbiy yozuvlar va shifokorlar o'rtasidagi muloqotda lotin tili ustunlik qilsa-da, ingliz tili asosan shifokor va bemor muloqotida va xalqaro hamkorlik tili sifatida ishlatiladi. Shuning uchun tibbiy ingliz tilini asosiy tibbiyot tili sifatida emas, lotin tiliga havola qilingan holda qo'llash lozim bo'ladi.

Qadimgi yunon-lotin tillari terminologiyasi tarixi tibbiyot tarixining bir qismi ekanligini, tibbiy atamalar ma'lum darajada tibbiyotning ma'lum bir davrda rivojlanishini aks ettirishi, zamonaviy tibbiyot tilida yunon va lotin so'zlaridan zamonaviy hosilalarni paydo qilish uchun qo'llanilishi, ushbu tillar ya'ni yunon va lotin tillari zamonaviy tibbiyot terminologiyasining asosi bo'lib qolishini ta'minlaydi.

Ilmiy tibbiyot va terminologiyaning asoschilari qadimgi yunonlar edi. Miloddan avvalgi VI asrdan boshlab, ular asta-sekin sehrga asoslangan amaliyotlardan voz kechib, kuzatuvlar, olingan tajriba va qadimgi yunon falsafasiga asoslangan tibbiy amaliyotni rivojlantirisha boshlaganlar. Ular fanlarda aniqlik va aniq atamalarning muhimligini angladilar. Qadimgi yunon tibbiyoti tibbiyotning otasi Gippokrat bilan birga vujudga kelgan. Uning davrida tibbiyot ratsionallashib, tibbiyot haqidagi ibtidoiy tushunchalardan voz kechilgan.

Qadimgi Rim imperiyasining kuchayishi, u yerda ilm-fanning shu bilan birgalikda, meditsinaning ham rivojlanishiga yo'l ochgan. Rimliklar yunoncha tibbiyot bilimlarini o'zlashtirdilar, yunon kitoblarini tarjima qildilar va qayta yozdilar. Rimning eng buyuk olimi Lotin tibbiyot terminologiyasining asoschisi hisoblangan Selsiy edi. Lotin tilida ko'plab tibbiy tushunchalarning nomlari, xususan, patologik holatlar uchun atamalar yo'q edi, shuning uchun Selsiy va boshqalar yunoncha atamalarni lotin tiliga tarjima qilishlari kerak edi, shu bilan birga yunoncha atamalarni yunoncha shaklda ishlatadilar. Shu tariqa ikki tomonlama lotin-yunon tibbiyot terminologiyasiga asos solingan. Terminologiyaning yunoncha qismi lotinlashtirilgan.

Rim imperiyasi qulaganidan keyin ham lotin tili g'arbda Uyg'onish davriga qadar ilm-fanda asosiy muloqot tili bo'lib qoldi. U ikki shaklda ishlatilgan: birinchisi; xalq tomonidan og'zaki qo'llanilgan, ilm-fanda vulgar lotin deb ham ataladi, u asta-sekin ko'plab roman tillariga aylangan. Ikkinchisi; yozma yoki adabiy lotin tili, asosan cherkovlarda, saroyda, yuqori tabaqa vakillarining tili sifatida ishlatilgan. O'rta asr lotin tili klassik lotin tilidan farq qilgan, shuning uchun klassik lotin tili o'lik tilga aylangan. O'rta asrlarda lotin tili Yevropadagi barcha o'qimishli kishilar uchun muloqot vositasi bo'lgan. Barcha ilmiy matnlar lotin tilida yozilgan. Keyinchalik bu til ilmiy davralarda muloqot tili mavqeyini yo'qotdi. Chunki o'lik tilga aylangan edi. G'arbiy Yevropada birorta xalq bu tilda gaplashmas edi, oddiy xalq tushunmasdi. Endi ilm-fan oddiy odamlar ham tushunadigan G'arbiy Yevropa tillarida yuritila boshladi. Ilm-fanda lotin tilini almashtirish tibbiyotning rivojlanishidagi sezilarli yutuqlarning natijasi bo'ldi va lotin tili eski dunyo tili sifatida tibbiyot va tabiiy fanlar bo'yicha erishilgan barcha yangi bilimlarni ifodalash uchun juda cheklangan bo'ldi. XIX asrning II yarmida lotin tilidan boshqa tillarda yozilgan tibbiy adabiyotlar ustunlik qila boshladi. Biroq adabiyotdagi tibbiy atamalar lotin yoki yunon tillarida saqlanib qolgan, chunki ular keng qo'llanilgan, lekin ayni paytda zamonaviy tillarga tez o'zlashtirilgan. XX-asrdan boshlab fanda ingliz tili ustunlik qiladi. Lotin tilining ingliz tiliga aralashuvi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, barcha ingliz tibbiy atamalarining 98 foizi lotin yoki yunon ildizlariga ega. Shuningdek, har oyda paydo bo'ladigan yangi tibbiy so'zlar ham ko'p holatlarda lotin tilidagi asosdan yasaladi. Shuning uchun ham meditsinada lotin tilini boshlang'ich bilimsiz anatomiya, fiziologiya va tibbiyotning ko'plab jihatlarini muvaffaqiyatli o'rganish mumkin emas deb ayta olamiz. Ayrim ekspertlarning fikricha, ingliz tili lotin tilidan to'liq o'tib ketmaydi, lekin uning lotin tilidan olingan til sifatida kelib chiqishi lotin tilini keyingi davrga o'tkazish vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar:

1. Mária Bujalková The Coexistence of Latin and English in Medical Terminology and its Contribution to ESP Teaching. Article 2018
2. И. Кучешева Анализ имен собственных для обозначения медицинских терминов (на материале английского и немецкого языков) Omsk 2018
3. Нормуродова С.М.Тиббий атамаларни шакллантириш усуллари. Science and education 2022/Volume 3 Issue 11

WORDLY
KNOWLEDGE